



## EXTERNAL FACTORS AFFECTING THE EVOLUTION OF PARTY SYSTEMS

**T.B. Abdullaeva**

Doctoral Researcher

Institute for the Study of Youth Issues and Training of Promising Personnel

Email: [takhmina.abdullaeva02@gmail.com](mailto:takhmina.abdullaeva02@gmail.com)

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** party system, external factors, political stability, global politics, international organizations, political competition, democratic institutions, political evolution, geopolitical threats.

**Received:** 20.06.25

**Accepted:** 22.06.25

**Published:** 24.06.25

**Abstract:** This article presents an in-depth analysis of external factors influencing the formation and development of party systems. Specifically, it examines the direct and indirect effects of global political trends, regional security challenges, economic crises, migration processes, the activities of international organizations, and external political pressures on party systems. Through a comparative approach, the study explores the experiences of various countries to determine how external influences affect political system stability, competitiveness, and the evolution of democratic institutions. The article also evaluates the internal resilience of party systems and their capacity to withstand external political interference.

### PARTIYAVIY TIZIMLARNING EVOLYUTSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI TASHQI OMILLAR

**T.B. Abdullaeva**

doktorant

*Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrлarni tayyorlash instituti*

[takhmina.abdullaeva02@gmail.com](mailto:takhmina.abdullaeva02@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Partiyaviy tizim, tashqi omillar, siyosiy barqarorlik, global siyosat, xalqaro tashkilotlar, siyosiy raqobat, demokratik institutlar, siyosiy evolyutsiya, geosiyosiy tahdidlar.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada partiyaviy tizimlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar chuqur tahlil qilingan. Xususan, global siyosiy tendensiyalar, mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy inqirozlar, migratsiya

jarayonlari, xalqaro tashkilotlar faoliyati va tashqi siyosiy bosimlar kabi omillarning partiyaviy tizimlarga ko'rsatgan bevosita va bilvosita ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil asosida turli mamlakatlar tajribasi o'rganilib, siyosiy tizimdagi barqarorlik, raqobatbardoshlik va demokratik institutlar rivojiga tashqi omillar qanday ta'sir qilayotgani aniqlangan. Shuningdek, partiyaviy tizimlarning mustahkamligi uchun zarur bo'lgan ichki immunitet va tashqi siyosiy ta'sirlarga qarshi turish qobiliyatiga baho berilgan.

## ВНЕШНИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭВОЛЮЦИЮ ПАРТИЙНЫХ СИСТЕМ

**Т.Б. Абдуллаева**

Докторант

Института изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров

*takhmina.abdullaeva02@gmail.com*

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** партийная система, внешние факторы, политическая стабильность, глобальная политика, международные организации, политическая конкуренция, демократические институты, политическая эволюция, geopolитические угрозы.

**Аннотация:** В данной статье глубоко проанализированы внешние факторы, оказывающие влияние на формирование и развитие партийных систем. В частности, рассмотрены прямое и косвенное воздействие глобальных политических тенденций, региональной безопасности, экономических кризисов, миграционных процессов, деятельности международных организаций и внешнеполитического давления на партийные системы. В исследовании на основе сравнительного анализа изучен опыт различных стран и определено, каким образом внешние факторы влияют на стабильность политической системы, уровень политической конкуренции и развитие демократических институтов. Кроме того, дана оценка устойчивости партийных систем и их способности противостоять внешним политическим вызовам.

**Kirish.** Bugungi kunda jahonda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar, mintaqaviy mojarolar, transmilliy muammolar, global iqtisodiy inqirozlar va xalqaro tashkilotlar faoliyati partiyaviy tizimlar faoliyatiga va ularning rivojlanish istiqbollariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va fuqarolik jamiyati institutlarini ilgari surayotgan xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, shuningdek, ba'zan bosimga asoslangan tashqi

siyosiy ta'sirlar mintaqaviy partiyaviy tuzilmalarning shakllanishi va yo'nalishini belgilab bermoqda.

XXI asr siyosiy jarayonlari global tus olganligi sababli, har bir davlatning ichki siyosiy tizimi, xususan, partiyaviy tizimlar evolyutsiyasi tashqi omillarning kuchli ta'siri ostida shakllanmoqda. Siyosiy partiyalar – demokratik boshqaruvning asosi bo'lib, ular orqali fuqarolarning siyosiy iroda va manfaatlari ifodalanadi. Shu sababli partiyaviy tizimlarning barqarorligi nafaqat ichki siyosiy omillarga, balki xalqaro va mintaqaviy omillar, global siyosiy tendensiyalar, tashqi bosimlar va geosiyosiy muhitga ham bevosita bog'liqdir.

Hozirda ko'plab mamlakatlarda partiyaviy tizimlarning transformatsiyasi ichki ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlargina emas, balki tashqi muhit bilan o'zaro aloqador holda yuz bermoqda. Xususan, Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa va ayrim Yaqin Sharq davlatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi siyosiy omillar – xalqaro sanksiyalar, siyosiy tanqidlar, donorlardan keladigan moliyaviy bosimlar yoki demokratik islohotlar bo'yicha xalqaro monitoring natijalari – partiyaviy tizimlar evolyutsiyasini belgilab bermoqda.[1;47]

Shu jihatdan, partiyaviy tizimlarning tashqi omillar ta'sirida qanday o'zgarishga uchrashi, bu omillar qanday mexanizmlar orqali siyosiy institutlarga ta'sir etayotgani va davlatlarning bu ta'sirlarga qanday moslashayotganini tahlil qilish – zamonaviy siyosatshunoslik va huquqshunoslik fanining muhim vazifasidir. Mazkur maqola ana shu dolzarb masalalarni o'rganishga, tashqi omillar bilan ichki siyosiy tizimlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga va partiyaviy tizimlarning barqaror evolyutsiyasi uchun nazariy-amaliy asoslar ishlab chiqishga qaratilgan.

### **Adabiyotlar tahlili va metod**

Partiyaviy tizimlarning shakllanishi va evolyutsiyasiga oid ilmiy qarashlar siyosatshunoslik fanining asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, partiyalar va ularning tizimlari nafaqat ichki ijtimoiy-siyosiy omillar, balki tashqi muhit — xalqaro siyosiy bosim, geosiyosiy raqobat, global tendensiyalar va transmilliy institutlar faoliyati ta'sirida o'zgarib boradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur mavzuni tahlil qilishda klassik va zamonaviy adabiyotlar chuqur o'rganildi.

Italiyalik siyosatshunos Giovanni Sartori o'zining mashhur "Partiyalar va partiyaviy tizimlar" asarida partiyalar evolyutsiyasini tahlil qilishda tashqi omillarni bevosita emas, balki bilvosita o'zgarishlarga olib keluvchi kontekstual shart sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, siyosiy partiyalar tashqi bosimlarga nisbatan immunitetga ega bo'lmas ekan, ular zaiflashadi yoki o'z funksiyalarini yo'qotadi. Bu tamoyil bugungi geosiyosiy muhitda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.[2;68]

Partiyaviy tizimlarning shakllanishi va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar masalasi O'zbekiston olimlari tomonidan so'nggi yillarda tobora ko'proq o'rganilmoqda. Ushbu mavzu siyosiy islohotlar, demokratik institatlarning mustahkamlanishi hamda xalqaro integratsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, ilmiy jamoatchilik orasida dolzarb mavzuga aylangan.

Avvalo, professor M. Jo'rayevning siyosiy tizimlar va partiyaviy institatlarning rivojlanish mexanizmlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida tashqi omillarning bevosita va bilvosita ta'siri masalalari chuqur tahlil qilingan. Olim o'z asarlarida xalqaro tashkilotlar, xususan YXHT, BMT, Venetsiya komissiyasi va Freedom House kabi institatlarning siyosiy partiyalar faoliyatiga ta'sirini huquqiy va siyosiy mezonlar asosida tahlil qilgan. Unga ko'ra, tashqi monitoring va tavsiyalar milliy siyosiy tizimlarni ochiqlikka undaydi, biroq ularni me'yordan ortiq qabul qilish suverenitet tamoyillariga tahdid tug'dirishi mumkin.[3;84]

Z. Qodirov o'z ilmiy ishlarida O'zbekistonda partiyaviy tizim evolyutsiyasi va tashqi siyosiy omillar o'rtaсидаги aloqadorlikni qamrab olgan. U O'zbekistonning YXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy islohotlar doirasidagi hamkorligini, shuningdek, xalqaro reytinglarning mamlakatdagi partiyalar faoliyatiga ta'sirini tahlil qilgan. Unga ko'ra, xalqaro reytinglar davlatlar uchun tashqi siyosiy bosim vositasi bo'lishi bilan birga, ichki siyosiy faollikni oshirishda ham stimulyator bo'lib xizmat qilishi mumkin.[4;112]

Markaziy Osiyo tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston siyosiy tizimlarida tashqi omillar ta'sirining ko'plab misollarini uchratish mumkin. Masalan, OSCE va Venetsiya komissiyasi tavsiyalari asosida Qozog'istonda 2021–2023 yillarda saylov qonunchiligidagi proporsional-majoritar tizimga o'tish kuzatildi. Bu esa partiyaviy maydonga yangi nomzodlarning kirib kelishiga imkon yaratdi. Ammo O'zbekiston tajribasida bunday tashqi turkilar qonunchilikka ehtiyyotkorona singdirilgan bo'lib, bu mamlakat siyosiy suverenitetini saqlashga intilayotganidan dalolat beradi.[5;89]

Ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, yangi avlod tadqiqotchilari – T. Carothers, L. Diamond, S. Levitsky kabi olimlar tashqi siyosiy bosimlarning partiyaviy tizimlar legitimligi va ijtimoiy vakillik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ham ta'kidlaydi. Bu esa tashqi omillarni faqat ijobiy kuch emas, balki muvozanatni buzuvchi omil sifatida ham baholash zarurligini anglatadi.[6;34]

Tadqiqotda qo'llanilgan metodologiya mavzuning murakkab va ko'p qatlamlı möhiyatını qamrab olishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi asosiy ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

1. Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli – Turli davlatlarning partiyaviy tizimlariga tashqi omillarning ta'siri solishtirildi. Xususan, Qozog'iston, O'zbekiston, Polsha va Gruziya kabi

davlatlar tajribasi asosida tashqi siyosiy ta'sirlar qanday mexanizmlar orqali partiyaviy strukturalarni o'zgartirgani tahlil qilindi.

2. Tarixiy tahlil metodi – Mustaqillikdan keyingi bosqichda tashqi siyosiy omillar qanday evolyutsion jarayonlar orqali partiyaviy tizimlarga ta'sir ko'rsatgani o'rganildi. Xususan, 1990-yillarda xalqaro donorlar (IMF, WB) tomonidan ilgari surilgan siyosiy islohot shartlari bilan bugungi kun tavsiyalari qiyosiy tarixiy kontekstda baholandi.

3. Sistemali yondashuv – Partiyaviy tizim tashqi siyosiy, iqtisodiy, axborot va madaniy omillar bilan uzviy bog'langan murakkab ijtimoiy tizim sifatida qaraldi. Bunda tashqi bosimlar faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy sanksiyalar, axborot intervensiylari, madaniy globalizatsiya shaklida ham tahlil qilindi.

Ushbu metodlar uyg'unligi tadqiqotga kompleks yondashuvni ta'minlab, mavzuni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur o'rganish imkonini berdi.

### Muhokama

Partiyaviy tizimlarning evolyutsiyasi nafaqat ichki ijtimoiy-siyosiy omillarning, balki tashqi siyosiy muhit, xalqaro tashkilotlar faoliyati, mintaqaviy xavfsizlik va geosiyosiy bosimlarning ham bevosita ta'sirida kechmoqda. Turli davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, tashqi omillar partiyaviy tizimlarni shakllantirishda kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lishi bilan birga, siyosiy islohotlar sur'atiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo davlatlarida, jumladan, O'zbekiston va Qozog'istonda tashqi omillar ta'siri ehtiyyotkorona qabul qilinmoqda. Bu mamlakatlar o'z siyosiy suverenitetini saqlagan holda, xalqaro tashkilotlar (masalan, YXHT, BMT, Yevropa Ittifoqi) bilan hamkorlikni kuchaytirishga intilmoqda. Masalan, Qozog'istonda 2022–2023 yillardagi saylov islohotlari (aralash saylov tizimiga o'tish) YXHT tavsiyalari bilan mos bo'lib, bu qadam partiyaviy maydonni nisbatan ochiqlashtirishga xizmat qildi.[7;82]

Biroq, O'zbekistonda partiyaviy tizim hali ham raqobatga to'liq ochilmagan. Siyosiy partiyalar mavjud bo'lsa-da, ularning o'rtasidagi ideologik farqlar zaif, tashqi bosimlarga nisbatan davlat ehtiyyotkor pozitsiyada qolmoqda. Bu yondashuv siyosiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan bo'lsa-da, uzoq muddatda partiyaviy tizimning sog'lom raqobatini cheklashi mumkin.

Sharqiy Yevropa davlatlarida, ayniqsa Polsha, Ukraina va Boltiqbo'yli mamlakatlarida tashqi siyosiy va iqtisodiy omillar partiyaviy tizimlarni shakllantirishda faol rol o'ynagan. Bu mamlakatlar Yevropa Ittifoqi va NATOga integratsiya yo'lida demokratik islohotlar va partiyaviy tizimni liberallashtirish borasida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirgan. Yevropa Ittifoqining moliyaviy yordami, normativ bosimi va monitoring tizimi ularning siyosiy tizimlarini ochiqlashtirishga sabab bo'lgan.

Biroq, bunday faol tashqi ta'sir ayrim hollarda ichki siyosiy parokandalikka olib kelgan. Masalan, Ukrainadagi ko'plab siyosiy partiyalar xorijiy moliyaviy manbalarga bog'liqligi bois ichki legitimlik inqiroziga uchragan. Bu holat tashqi ta'sirning ham foydali, ham xavfli jihatlari mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekiston va Qozog'istonda ushbu reytinglarga nisbatan munosabat ehtiyyotkor. Ular tavsiyalarni tanlab tatbiq etmoqda. Biroq, partiyaviy tizimni rivojlantirishda bu reytinglar amaliy mezon emas, balki ko'rsatkich xarakteriga ega bo'lib qolmoqda.

### Natijalar

Olib borilgan tahlillar, qiyosiy o'rganishlar va o'zbek hamda xalqaro olimlarning ilmiy qarashlari asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi: Tashqi omillar partiyaviy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim determinant sifatida namoyon bo'lmoqda. Global siyosiy tendensiyalar, xalqaro tashkilotlar faoliyati, reytinglar va siyosiy bosimlar ichki siyosiy tizimlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu omillar ayrim holatlarda partiyaviy ochiqlik va raqobatni kuchaytirsa, ba'zida esa ichki siyosiy muvozanatni izdan chiqarishi mumkin.

Partiyaviy tizimlarning tashqi omillarga nisbatan reaksiyasi har bir mamlakatning siyosiy madaniyati, tarixiy rivojlanish yo'li va huquqiy asoslariga bog'liq. Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O'zbekiston va Qozog'iston, tashqi siyosiy tavsiyalarga nisbatan ehtiyyotkorona yondashib, ularni milliy shart-sharoitlarga moslashtirib qabul qilmoqda. Boshqa mintaqalarda esa bu omillar tez va keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, tashqi ta'sirning natjalari har doim ijobiy bo'lavermaydi. Sharqiy Yevropada bu omillar demokratik institutlar rivojiga turtki bo'lsa-da, Yaqin Sharq va Afrikada siyosiy beqarorlik, partiyaviy parokandalik holatlarini yuzaga keltirgan.(1-jadval)

**1-jadval**

Davlat	Tashqi omillar (asosiy manba)	Partiyaviy tizimga ta'siri	Natijaviy holat (evolyutsiya xususiyati)
<b>O'zbekiston</b>	YXHT tavsiyalari, xalqaro reytinglar, donorlik tashkilotlari	Saylov qonunchiligidagi qisman o'zgarishlar, partiyalar faoliyatida huquqiy asoslar mustahkamlandi	Ehtiyyotkor, bosqichma-bosqich evolyutsiya, barqarorlik ustuvor
<b>Qozog'iston</b>	YXHT, Yevropa Ittifoqi, xalqaro sanksiyalar xavfi	Proporsional-majoritar tizim joriy etildi, raqobatga yo'l ochilmoqda	Nazorat ostidagi ochiqlik, siyosiy islohotlar bosqichma-bosqich
<b>Ukraina</b>	Yevropa Ittifoqi, AQSh, NATO bosimi, grantlar	Siyosiy raqobat oshgan, ko'plab partiyalar tashkil topgan	Tizim barqaror emas, tashqi ta'sirlarga yuqori darajada ochiq

<b>Polsha</b>	Yevropa Ittifoqi integratsiyasi	Partiyaviy tizim Yevropa standartlariga moslashtirilgan	Demokratik va raqobatbardosh tizim shakllangan
<b>Misr</b>	G‘arb demokratik bosimi, “Arab bahori” ta’siri	Partiyalar faollashgan, biroq siyosiy beqarorlik yuzaga kelgan	Beqarorlik, tashqi bosim ichki muvozanatni izdan chiqqargan

1-jadval. Tashqi omillarning partiyaviy tizimlarga ta’siri (qiyosiy tahlil jadvali)

- Jadvalda tashqi omillar sifatida xalqaro tashkilotlar, integratsion jarayonlar, siyosiy bosimlar va reytinglar olinadi.
- “Natijaviy holat” ustunida mamlakatlardagi partiyaviy tizimlarning qanday yo‘nalishda rivojlangani ko‘rsatilgan.

### Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tashqi omillar partiyaviy tizimlarning evolyutsiyasida muhim o‘rin egallaydi, ammo ularning ijobiy yoki salbiy ta’siri davlatning siyosiy madaniyati, huquqiy asoslari va ichki ijtimoiy muvozanatiga bog‘liq. Qiyosiy tahlil ko‘rsatadiki:

- Markaziy Osiyo davlatlari tashqi omillarni ehtiyyotkorona qabul qilmoqda, barqarorlikni ustuvor qo‘ymoqda;
- Sharqiy Yevropa tashqi ta’sirlarni faol qabul qilib, demokratik islohotlarni jadallashtirmoqda;
- Yaqin Sharq esa noto‘g‘ri moslashuv sababli beqarorlikka duch kelmoqda.

Shunday ekan, har bir mamlakat tashqi omillar ta’sirini o‘zining siyosiy-huquqiy realiyati asosida baholashi va muvozanatli siyosat yuritishi zarur.

Partiyaviy tizimlarning evolyutsiyasi nafaqat ichki siyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan, balki global siyosiy muhit va tashqi omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tashqi omillar – xalqaro tashkilotlar faoliyati, mintaqaviy siyosiy bosimlar, iqtisodiy sanksiyalar, reyting tizimlari va transmilliy siyosiy tendensiyalar – zamonaviy davlatlar partiyaviy tizimlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Qiyosiy tajribalar asosida aniqlanishicha, tashqi omillarning ta’siri har doim bir xil bo‘lmaydi: ayrim holatlarda ular siyosiy ochiqlik, partiyalararo raqobat va fuqarolik jamiyatni faolligini kuchaytirsa, boshqa holatlarda esa siyosiy beqarorlik, ishonch tanqisligi va sun’iy partiyaviy strukturalarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston tajribasi, tashqi omillarga nisbatan ehtiyyotkor, muvozanatli va selektiv yondashuvni afzal ko‘rayotgan davlatlar namunasi sifatida baholanishi mumkin. Bu holat milliy siyosiy suverenitetni saqlagan holda, xalqaro tajribadan oqilona foydalanish zaruratini ta’kidlaydi.

Partiyaviy tizimlarning tashqi bosimlarga nisbatan barqarorligi va ijtimoiy vakillik qobiliyati yuqori bo‘lishi uchun quyidagi omillar muhim:

- siyosiy partiyalarning ideologik mustaqilligi va ijtimoiy tayanchi bo‘lishi;
- huquqiy va institutsional asoslarning mustahkamlanishi;
- tashqi omillarni tanqidiy, ammo ochiq tahlil qila oladigan siyosiy madaniyat mavjudligi;
- fuqarolik jamiyati bilan o‘zaro aloqadorlikning kuchaytirilishi.

Shu bois, partiyaviy tizimlarning barqaror evolyutsiyasi tashqi omillarni to‘liq qabul qilish yoki rad etish orqali emas, balki ularni milliy siyosiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’milanishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Jo‘rayev M. Siyosiy tizimlar evolyutsiyasida tashqi omillarning roli. I.f.y.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 27.
2. Qodirov Z. O‘zbekistonda siyosiy pluralizmning shakllanishi: tashqi va ichki omillar. I.f.y.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 33.
3. Saidov A. Siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy mexanizmlar. – Toshkent: Adolat, 2017. – B. 41.
4. Xudoyberganov X. Tashqi siyosiy omillarning partiyaviy tizimlarga institutsional ta’siri. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 38.
5. Qobilova D. Mintaqaviy xavfsizlikning siyosiy barqarorlikka ta’siri. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 29.
6. Ne’matov N. Siyosiy raqobat va tashqi siyosiy bosimlar. – Toshkent: Ijtimoiy Fikr, 2022. – B. 36.
7. Karimov M. Xalqaro reytinglar va siyosiy institutlar transformatsiyasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – B. 24.
8. OSCE/ODIHR. Uzbekistan Parliamentary Elections Final Report. – Warsaw, 2020. – P. 12–19.
9. Freedom House. Nations in Transit 2023: Uzbekistan. – Washington D.C., 2023. – P. 42–48.
10. Venice Commission. Guidelines on Political Party Regulation. CDL-AD(2010)024. – Strasbourg, 2010. – P. 5–23.